

Samarqand va Bavariya o'rtasidagi hamkorlik kengaymoqda

Turkiy davlatlar onkologlarining II Kongressi ish boshladi

SamDU dunyoning eng nufuzli reytingida zamonaviy tillar yo'nalishi bo'yicha yuqori o'rinni egalladi

Talabalar o'rtasida "Universiada o'yinlari - 2026" musobaqasiga start berildi



# Zarafshon

Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

2026-yil 11-aprel, shanba, 33 (24.213)-son

O'zbek xalq maqoli

Har shaharning havosi boshqa

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews\_uz https://twitter.com/zarnews\_uz info@zarnews.uz

## UMUMIY O'TMISHDAN MUSHTARAK KELAJAK SARI

Samarqand shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qozog'iston Respublikasi Parlamenti Senati o'rtasidagi hamkorlik bo'yicha komissiyaning beshinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. O'zbekiston Oliy Majlisi Senati raisi Tanzila Norboyeva hamda Qozog'iston Parlamenti Senati raisi Maulen Ashimbayev ishtirokida o'tkazilgan majlisda ikki davlat rahbarlarining ochiq, o'zaro ishonchga asoslangan muloqoti va mustahkam siyosiy irodasi tufayli keyingi yillarda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi hamkorlik barcha sohalarda do'stlik, yaxshi qo'shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik tamoyillari asosida rivojlanib borayotgani ta'kidlandi.



Komissiya faoliyati doirasida savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish, Orol dengizi muammolarini hal etish, Orolbo'yi ekotizimini muhofaza qilish, shuningdek, ilm-fan va ekologiya sohasidagi ta'lim loyihalarini amalga oshirish masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, siyosiy, savdo-iqtisodiy, "yashil" iqtisodiyot, energetika, ta'lim va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlikni kengaytirish istiqbollari ko'rib chiqildi.

Muhokamalar yakunida tomonlar erishilgan kelishuvlarni qayd etib, parlamentlararo hamkorlikni yanada rivojlantirishga tayyor ekanliklarini bildirdilar. Samarqand shahridagi "Ipak yo'li" xalqaro turizm va madaniy meros universitetida Qozog'iston parlamenti delegatsiyasining yurtimizga tashrifi doirasida o'zbek-qozog' ilmiy-ijodiy ziyolilarining ikkinchi forumi bo'lib o'tdi.

"Umumiy o'tmishdan mushtarak kelajak sari" mavzusidagi forumda O'zbekiston va Qozog'iston parlamentlari a'zolari, taniqli olim va yosh tadqiqotchilar, madaniyat va san'at namoyandalari, ijodkorlar ishtirok etdi.

Tadbir qatnashchilari o'zbek va qozog' xalqlari ijodkorlari, hunarmandlarining ilmiy va ijodiy asarlari, milliy liboslari ko'rgazmasi, shuningdek, innovatsiyalar va texnologiyalar ekspozitsiyasi bilan tanishdilar.

Forumning ochilish marosimida O'zbekiston Oliy Majlisi Senati raisi Tanzila Norboyeva hamda Qozog'iston Parlamenti Senati raisi Maulen Ashimbayev ishtirok etdi va so'zga chiqdi.

Ziyolilar forumi bu – shunchaki uchrashuv emas, tarixi va madaniyati bir bo'lgan, umumiy kelajakka intilayotgani xalqlarimiz o'zaro hamkorligining muhim yo'nalishlaridan biri, – dedi Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Norboyeva. – O'tgan yil Astana shahrida ilk forum yuksak darajada tashkil etilgandi va bu ikki xalq ziyolilari o'rtasida samarali muloqot platformasiga aylangandi. Bugun Samarqandda u an'anaviylik kasb etdi, o'zbek va qozog' ijodkorlari, olimlari yana bir davrga jamladi.

Forumda O'zbekiston va Qozog'iston fanlar akademiyalari, ijodiy uyushmalar vakillari, jamoat arboblari, yozuvchi va shoirlar, san'atkorlar so'zga chiqib, xalqlarimiz o'rtasidagi azaliy do'stlik va qarindoshlik aloqalari, uni yanada rivojlantirish istiqbollari yuzasidan o'z fikrlarini bildirdilar. Hamkorlikda amalga oshirilayotgan ijodiy loyihalar va kelgusidagi rejalari haqida so'z yuritildi.

Forumdan so'ng Qozog'iston Parlamenti Senati raisi Maulen Ashimbayev boshchiligidagi delegatsiya Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi va Samarqanddagi boshqa tarixiy-madaniy obidalar, diqqatga sazovor maskanlarda bo'ldi.



## AMIR TEMUR – FAXRIMIZ, G'URURIMIZ

Samarqandda buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi Amir Temur tug'ilgan kunga bag'ishlangan tadbirlar buyuk jahongir maqbarasi ziyorati bilan boshlandi.

Viloyat va shahar hokimligi mas'ullari, faollar sohibqironni yod etdilar, Qur'on tilovat qilindi.

Davlatimiz rahbarining qaroriga ko'ra, bu yil Amir Temur tavalludining 690 yilligi yurtimizda keng nishonlanmoqda. Sohibqiron bobomiz va temuriylar davriga

oid tarixiy obidalar, yodgorliklar restavratsiya qilinayapti, atrofi obod bo'lmoqda. Jumladan, Amir Temur maqbarasi hududida ham ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, ziyoratchilar uchun qulaylik va imkoniyatlar yaratilmoqda. Tadbir qatnashchilari olib borilayotgan ishlar bilan tanishdilar.

Shundan so'ng viloyat hokimi A. Boboyev boshchiligidagi Amir Temur haykali poyiga gullar qo'yildi.

Buyuk jahongir xalqimizning faxri, g'ururimiz timsoli, – deydi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Samarqand viloyati bo'limi raisi Xolbek Ko'ba-

yev. – Lekin bu ulug' ajdodimizga munosib bo'lish bugungi avlodning burchi hisoblanadi. Shu jihatdan joriy yildan boshlab aprel oyi yurtimizda "Amir Temur oyligi" sifatida o'tkazilayotgani e'tiborli, albatta. O'ylik doirasida viloyatimizdagi ta'lim muassasalari, mahallalarda tarixchi olimlar, yozuvchi va san'atkorlar, ma'naviyat targ'ibotchilari ishtirokida uchrashuvlar, madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda.

Amir Temur tavallud kuniga bag'ishlangan tadbirlar viloyatdagi ta'lim muassasalari, teatr va muzeylar, madaniyat maskanlarida davom etmoqda.

E'tirof

## Fidoyi mehnat va yuksak mas'uliyat

Yaqinda Prezidentimizning «O'zbekiston Respublikasi geologiya sohasi xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmoniga asosan «O'zbek geologiya qidiruv» aksiyadorlik jamiyatining Samarqand markaziy geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi buldozer mashinisti Hamza Sayitov «Shuhrat» medali bilan taqdirlandi.

Boshqa kasblarni kamsitmagan holda aytish mumkin, geologiya sohasida fidoyi insonlar xizmat qiladi. Chunki ularning aksariyati o'z oilasidan yiroqda baland tog' va jazirama cho'llarda oylab yurib, yer osti qazilma boyliklarini geologiyasi va qidiruv ishlari bilan shug'ullanadi.

Geologiya sohasini rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va yangi konlarni aniqlash yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan insonlar e'tibor va e'tirofga munosib, – deydi «O'zbek geologiya qidiruv» AJning Samarqand markaziy geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi boshlig'i Sobir Ne'matullayev.

Hamza Sayitov ana shunday, o'z kasbiga sadoqatli va tajribali xodimlarimizdan biri. Texnikani samarali boshqarish, uni soz holatda saqlashda boshqalarga ibrat bo'lib kelmoqda. Avariya holatlarining oldini olish va ularni bartaraf etishga mas'uliyat bilan yondashuvi uning yuqori kasbiy mahorati va tajribasidan dalolat beradi.

Qariyb chorak asrlik mehnat stajiga ega Hamza Sayitov 2007-yildan buyon shu korxonada faoliyat yuritib kelmoqda. So'nggi yillarda Samarqand markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasi tomonidan 30 dan ortiq loyiha bo'yicha belgilangan ishlarning sifatli bajarilishi-



da uning hissasi katta. Jumladan, u boshqaruvdagi "Chetra T-11.02 YBR-1" rusumli buldozer yordamida Qo'shrabot tumani Zarmitan dala ekspeditsiyasida bir yilda "G'ujumsoy" uchastkasida 225 m<sup>3</sup>, "Charmitan" uchastkasida 400 m<sup>3</sup>, "O'rtaliq" uchastkasida 670 m<sup>3</sup>, "Yuqorisaroy" uchastkasida 200 m<sup>3</sup>, "Qo'rg'on" uchastkasida 135 m<sup>3</sup> va "Bayram ma'dan namoyoni" uchastkasida burg'ulash maydonlarini tayyorlashda 200 m<sup>3</sup> tuproq

ishlarini amalga oshirdi. U nafaqat mohir mutaxassis, balki haqiqiy ustoz sifatida ham jamoada alohida o'rin tutadi. Ko'p yillik boy tajribasini yoshlarga o'rgatib, bugunga qadar o'n nafardan ortiq shogirdlarni tarbiyaladi.

Kamtarligi, haloligi va mehnatsevarligi bilan hamkasblari hamda mahalladoshlari o'rtasida hurmat qozongan.

Prezidentimiz tomonidan berilgan davlat mukofoti nafaqat imen, balki birga ishlayotgan jamoamizniki deb bilaman, – deydi "Shuhrat" medali sohibi Hamza Sayitov. – Ularning ko'magisiz bunday natijalarga erishish qiyin. Bundan buyon ham mashaqqatli mehnatim bilan yurtimiz taraqqiyotiga hissa qo'shishni o'zim uchun sharaf deb bilaman.

Hamza Sayitovning fidoyiligi, kasbiga sadoqati va yuksak insonparvarlik fazilatlarini bugungi kunda barcha geologlar uchun ibrat maktabi hisoblanadi.

Dilmurod TO'XTAYEV.

# YANGI TARAQQIYOT MARRASIDA

O'tgan yil 27-dekabr kuni davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan "Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish to'g'risida"gi qaror asosida viloyatimizdagi barcha tuman va shaharlarni 2026-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar ishlab chiqildi. Ushbu dasturlar hokimlar tomonidan xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyasida taqdimot qilinib, tasdiqlandi. Ayni paytda barcha tuman va shaharlarda belgilangan vazifalar ijroga qaratilgan. Bunda har bir tuman (shahar) ixtisoslashuvi, geografik joylashuvi, tabiiy xomashyo va yer resurslari hamda infratuzilmaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, qiyosiy ustunligi asosida "namunali va metodik" hududga aylantirilmoqda.

## XO'SH, BU REJALAR NIMALARDAN IBORAT?

**Shaharda 2026-yilda sanoat mahsulotlari hajmining 109,2 foizga o'sishini ta'minlash ko'zda tutilgan. Ishlab chiqarish hajmini kamaytirgan yirik va kichik sanoat korxonalarini to'la quvvatda ishlatish hamda yangi ishga tushirilgan sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlarini oshirish evaziga yil yakuni bilan 1640,3 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladi.**

Jumladan, "Energo texnika" MChJ va "Energy device systems" MChJ korxonalarini tomonidan 800 dan ortiq transformator ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

Xizmat ko'rsatish hajmi qariyb 120 foizga oshiriladi. Bu raqam ortida yuzlab yangi biznes, servis xizmatlari va ish o'rinlari turibdi. 801 nafar aholini doimiy ish bilan ta'minlash orqali shuncha oilaning daromadi barqaror bo'ladi.

Jori yilda tadbir-

korlik sohasini rivojlantirish maqsadida 5 ta, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer maydonlarini auktsion savdolariga chiqarish hamda 55 ta davlat mulki obyektlarini ijaraga berish ortidan yirik loyihalar - sanoat zonalarini, ekoturizm klasterlari va savdo majmualari tashkil etiladi va bular kelajakda shahar iqtisodiyotining "o'sish nuqtalari"ga aylanadi.

Qishloq xo'jaligi sohasidagi rejalar ham aholini oziq-ovqat bilan barqaror ta'minlashga qaratilgan. Mahsulot hajmini oshirish bilan birga, narx-navo barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilayotgani juda muhim. "Dehqon bozori" MChJ va uning filiallarida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini tartibga solib, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabidan kelib chiqib, kuz-qish mavsumida zaxira yaratish muhim. Chunki bozordagi barqaror narxlar aholi farovonligiga bevosita ta'sir qiladi.

- Islohotlarning natijasi odamlar hayotida sezilishi kerak, - deydi Kattaqo'rg'on shahar hokimi o'rinbosari M.Zavqiyev. - Shahrimiz iqtisodiy hayotini o'zgartiruvchi 4 ta drayver loyihani zarur infratuzilma bilan ta'minlash orqali tadbirkorlarga

## KATTAQO'RG'ON SHAHRI



qulay shart-sharoit yaratishni reja qilganmiz. Jumladan, Qo'shhovuz mahallasida joylashgan "Qo'shhovuz-1" kichik sanoat zonasi va unga tutash Ingichka ko'chasida 6 ta tadbirkorlik subyekti faoliyatini kengaytirib, 12 ta yangi sanoat loyihalari ishga tushiriladi. Shuningdek, Kattaqo'rg'on suv ombori sohili bo'yidagi 4 gektar yer maydonida

davlat - xususiy sheriklik asosida ekoturizm klasteri tashkil etiladi, Mikrosanoat markazi hamda Samarqand-Juma avtomobil yo'lida Sharq shirinliklariga ixtisoslashtirilgan "Milliy brend" savdo majmuasi tashkil etiladi. Turli dasturlar orqali minglab odamlarni ish bilan ta'minlash rejalashtirilgan. Ayniqsa, yoshlar, ayollar va nogironligi bor shaxslarga alohida e'tibor qaratilayotgani jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kambag'allikni kamaytirish bo'yicha belgilangan choralar ham juda aniq. Jumladan, "Mehnatsevar ayol" loyihasi bo'yicha iqtisodiy nafaqli, nogiron farzand yoki bemor oila a'zosini parvarish qilayotgan xotin-qizlar bandligi ta'minlanishi ko'zda tutilgan. Uyda o'tirgan xotin-qizlar uchun masofaviy mehnat va raqamli tadbirkorlik bo'yicha ko'nikmalar shakllantiriladi. "Teng imkon - inklyuziv bandlik" dasturi bo'yicha esa 104 nafar nogironligi bo'lgan shaxs uchun mehnat bozorida kvota ish o'rinlari yaratiladi. 2,3 milliard so'm subsidiya, ssuda va grantlar, 11,6 milliard so'm bank kreditlari ajratilib, 104 nafar nogironligi bo'lgan fuqarolar ishga joylashtiriladi. "Barqaror kelajak sari" dasturi asosida 1067 nafar yoshning bandligi ta'minlanib, doimiy daromadga ega bo'ladi.

2026-yilda 150 million dollarlik investitsiya jalb qilish rejasini bu Kattaqo'rg'on shahri uchun katta imkoniyat yaratadi. Chunki bu mablag'lar yangi korxonalar ochishga, ishlab chiqarishni kengaytirishga, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga yo'naltiriladi. Eng muhimi, Kattaqo'rg'on nafaqli iqtisodiy jihatdan, balki ijtimoiy va madaniy tomondan ham rivojlangan zamonaviy shaharga aylanadi.

**Dilmurod TO'XTAYEV.**

### Medal ortidagi

## "sahna"

### TOYLOQLIK XOTIN-QIZLAR FAOLIYATIGA BIR NAZAR

- \*To'rt ko'chat malina butun mahalla ahlini malinachilarga aylantirdi
- \*Mahalladagi sport markaziga qatnasam, barcha dardlarim ariydi
- \*Turkiyaga ishlashga ketmoqchidim, shu yerda 5 ming AQSh dollarilik grant yutib oldim
- \*Talliotada qariyb har bir xonadonda yoqilg'i talab etmaydigan issiqxonalar bor



Aslida Toyloqqa Prezidentimiz farmonga ko'ra "Shuhrat" medaliga sazovor bo'lgan tuman hokimi o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Noila Kambaridinova bilan suhbatlashish uchun borgandik. U esa "Men bilan emas, o'zini o'zi band qilayotgan, o'zi bilan bir qator-da atrofda qilayotgan xotin-qizlar bilan suhbatlashing", deya bizni bir qator mahallalarga boshlab bordi.

- Bunday deiyishimga sabablari ko'p, - deydi Noila Kambaridinova. - Chunki ishli ayol, ta'lim, hunar bilan band oilalarning ortiqcha muammoga vaqti bo'lmaydi. O'zini, ishini rivojlantirishni o'ylaydi. Keyingi paytlarda tumanda u yoki bu dehqonchilikka yoki ma'lum bir hunarga ixtisoslashib, biror sohaning drayveriga aylanayotgan mahallalar soni ko'paymoqda. Quvonarlisi, ushbu mahallalardan murojaat yo'q hisobi, bu yerda turli noxush holatlar, salbiy ko'rsatkichlar ham deyarli yo'q. Shu maskanlarni bir borib ko'rsangiz, bunga o'zingiz ham amin bo'lasiz.

#### TURKIYANING PULINI TOYLOQDA TOPAYOTGAN AYOL

Zebo Fattoyeva farzandini bir o'zi, yolg'iz katta qilyapti. To'g'ri, qo'lida gulday hunari bor, ro'zg'orini yuritisa bo'ladi. Lekin farzandining kelajagini o'ylasa, yosh payti nimadir qilib, jamg'arib qo'yish kerakimkan, degan xayolda Turkiya davlatiga borib ishlashni rejalashtirdi.

U aynan shunday xayol bilan yurgan paytda o'zi istiqomat qilayotgan Toyloq tumani Baxshitepa mahallasi raisi Xursand Isrofilova O'zbekiston tashqi ishlar vazirligi va bir qator tashkilotlar hamkorligida mahalla raislari uchun tashkil etilgan seminar-da ishtirok etib qaytdi.

- Seminarda fuqarolarning xorij davlatlariga qonuniy ishlashlari uchun nimalarga e'tibor qaratish kerakligi, qolaversa, O'zbekistonda mehnat qilaman, degan insonlar uchun qanday sharoit va imtiyozlar borligi haqida mutaxassislar ba-

tafsil tushuncha berishdi, - deya gapirib beradi Xursand Isrofilova. - Vazirlikning qator xalqaro tashkilotlar hamkorligida ish o'rni yarataman, ishlayman degan fuqarolar uchun maxsus grantlari bor ekanligini seminar davomida bilib oldim. Mahallamizda bir nechta fuqaro ishimni boshlayman, deb biznes-loyihalar tuzib qo'ygan, faqat yetarlicha mablag'i yo'qligi uchun ishini boshlay olmagani bor edi. Qolaversa, seminardan avval mahallada migratsiyada yurgan va chetga ishlashga ketmoqchi bo'lgan aholi bo'yicha batafsil ma'lumot to'plagan edik. Hozirda mahallamizda 248 nafar aholi chetga ishlashga ketgan, ularning 68 nafari xotin-qizlar.

Seminardan qaytib kelgach, tegishli tashkilot vakillari ishtirokida aholi orasida yana bir bor tushuntirish ishlari olib borildi va yuqoridagi yangiliklarni ular bilan baham ko'rdim. Buni qarangi, tashqi ishlar vazirligi va xalqaro tashkilotlar hamkorligida olib borilgan "Hamroh" loyihasi doirasida uch nafar fuqaromiz 5 ming dollarlik grant yutib olib, o'z ishini boshladi. Ular orasida Zebo Fattoyeva ham bor. U yarim tayyor va qandolatchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni boshladi. Grant puliga esa maxsus muzlatkich, pech, xamir qorgich asboblarni sotib oldi. Endi bir o'zi emas, to'rt nafar xotin-qizni ham ishli qildi.

- Mahsulotingiz sifatini bo'lsa mijozning o'zi topib kelaverar ekan, - deydi Zebo Fattoyeva biz bilan suhbatda. - Xalqimizning to'y-ma'rakalari ko'p, bugun xotin-qizlar dasturxonaga kerakli juda ko'p pishiriq va yeguliklarni buyurtma asosida tayyorlatmoqda. Yaqin atrofda, o'zlarini guvohi bo'lib turgan qandolat sexi esa ular uchun eng ishonchli hisoblanadi.

#### TO'RT KO'CHAT MALINA BUTUN MAHALLANI "BOQYAPTI"

Tumanning Tepaqishloq mahallasi esa malinachilik mahallasi sifatida mashhur bo'lgan. Bu yerga ham mijozlar o'zlarini kelishadi.

- Mahallamizda 610 ta xonadon bo'lsa, shuning 500 tasida malina ko'chatlari bor, hech bo'lmasa, o'zlarini uchun ham ekib, hosilini olishadi, - deydi Tepaqishloq mahallasi xotin-qizlar faoli Maqsuda Husenova. - Malina ko'p mehnat talab qilmaydigan, o'zidan o'zi ko'payib boradigan ko'p yillik o'simlik. Eng muhimi, sog'lik uchun juda foydali. Aholimiz malina ekib, shu rezavordan daromad ko'ra boshlagandan beri iqtisodiy ahvoli ancha yaxshilandi. Eng muhimi, salomatligida ijobiy o'zgarishlar bor.

- Besh yildan beri oilamiz bilan malina parvarishlaymiz, - deydi Marg'uba Rahmonova. - Avvaliga qo'shniydan beshta malina ko'chatini olib, tomorqamizning bir chekkasiga ekib qo'ygandim. O'zimiz havasga yeb, murabbo qildik. Qarasam, qo'shniylikdagi mashinalarda mijozlar kelib, falon puldan malina olib ketishyapti. Bizam ko'paytirsak-chi, degan niyat paydo bo'ldi. Keyin bir jo'yak ajratdik, qarasak, eplayapmiz. Keyin mana, ko'rib turganingizday 5 sotix joygacha kengaytirildi. To'g'ri, ishi kamroqday tuyuladi, ammo baribir mehnati yaxshigina. Qish oylarida malina butalarini bog'lamlab, maxsus taxtakachlar bilan bog'lab qo'yamiz. Bahor oylarida ham o'ziga yarasha mehnati bor. May oyining oxirlarida mevaga kirgach, uni tera boshlaymiz. May, iyun, iyul oyida to'xtamay meva beradi. Keyin sentyabrdan ikkinchi mavsum boshlanadi.

Mahalla ahlining aytishicha, bundan yigirma yillar avval ushbu mahallada yashovchi bir onaxon qo'shni Jomboy tumanidan o'zi uchun to'rt tup malina ko'chat olib kelib ekan va yaxshigina hosil olgan ekan. Ko'chatini olish oson bo'lgani uchun qo'ni-qo'shni qiziqib, olib ketaverishgan. Qarabizki, butun mahalla ahli uchun bugunga kelib, malina qo'shimcha, ba'zilar uchun asosiy daromadga aylani bormoqda. Bir ayolning qiziqishi tufayli butun mahalla drayveriga aylangan malinachilik nafaqli Tepaqishloq, balki qo'shni mahallalarga ham tarqalib borayotir. Yomondan emas, yaxshidan rang olish qanday yaxshi!

#### YOQILG'ISIZ ISSIQXONALAR

Toyloqda aynan shunday, yaxshidan rang oluvchilar ko'p, shekilli. Aslida yerning unumdorligi, suv masalasida muammo yo'qligi uchunmi, bu hudud ahli orasida dehqonchilik qilmalik uyat sanaladi, yeri bo'sh yotsa, bu yer egasiga qarashlar ham boshqacharoq bo'ladi. Tuman odamlari, ayollari bilan gaplashar ekanisiz, ekin uchun muammo bo'lsa-da uni hal etishga jahd qiladiganlar ko'pligini his qildik. Masalan, tumandagi Talliota mahallasida aholining 70 foizida issiqxonana bor. Ular issiqxonamizni qanday isitamiz, deb bosh qotirishmaydi. Eng qizig'i, issiqxonana biror yoqilg'i bilan isitilmaydi.

- Hademay bozorlarda besh-oltitasi o'rmlangan sabzi, karam chiqadi, ularning katta qismini bizning mahalladan olib ketishadi, - deydi Talliota mahallasi xotin-qizlar faoli Zulfiya Tolibova. - Mahallamizda 1031 xonadon bo'lsa, ularning 620 tasida issiqxonana bor. Asosan sabzavot ekishadi, aprel oylaridagi yig'imdan keyin yana boshqa ekin ekiladi.

- 25 yildan beri issiqxonada sabzavot yetishtiramiz, - deydi biz issiqxonasini ko'zdan kichirgan xonadon bekasi Mahbuba Zudlayeva. - Mana, ko'rib turganingizday, hademay sabzini bozorga chiqaramiz. Keyin o'niga pomidor, bodring ekamiz. Tomchilatib sug'oriladi ekinlar, suv tejaladi. Asosiy, ro'zg'orimiz shu tomorqadan o'tadi, bir yig'imdan 30 million so'mgacha daromad qilamiz. Ikkinchi ekindan ham shunchalar chiqib qolar.

Issiqxonalar maxsus plyonka bilan o'rangan, sabzavotlar uchun shuning o'zi yetarli ekan.

#### KEYINGI MANZIL - SALOMATLIK BEKATI

Ushbu bekat haqida gapirishdan oldin shu tumanda istiqomat qiluvchi bir hamkasbimning fikrini aytib o'tishni joiz topdim.

- Bundan bir necha yillar avval menaga kimdir ayoling bir necha yildan keyin ma'lum mablag' evaziga nimalar iste'mol qilish haqida maslahatlarni sotib olib, ovqat tayyorlaydi, desa, uni aqldan o'zimga chiqardim. Lekin bugun shu hol ko'z o'ngimda bo'lyapti. Atrofimizda juda ko'p ayollar sog'lom ovqatlanish kurslariga qatnash boshlagan! - degandi. Bunga o'zimiz guvoh bo'ldik, faqat farqi - bu xizmatlarning barchasi tekinga tashkil qilingan.

- Mahalladagi bo'sh binoda tashkil etilgan ushbu fitnes zalimizga har kuni o'nlab ayollar kelib shug'ullanishadi, - deydi sport zali treneri Nigora Sultonova. - Ko'pchilik qishloq hududlarida shundog'am jismoniy mehnat yetarli-ku, fitnes zallariga ehtiyoj bormi, deb so'rashadi. Ayollar bilan suhbatlashib ko'rsangiz, ular zalga qatnaganidan keyin o'zlarida qanchalik ijobiy o'zgarishlar bo'lganini aytib berishadi.

- Bundan bir necha yillar avval shifokorlar biroz og'irroq tashxis qo'yishgandi, - deydi Narzizot Ashurova. -Tushkunlikka tushib qoldim. To'g'ri, davolanyapman, atrofimda bolalarim parvona. Lekin bilasizmi, shu yerga kelsam, kayfiyatim ko'tarilib, o'zimni ancha yengil his qilaman, sog'ligim ham yaxshilanayotganday bo'ladi.

Tumandagi 50 ta mahallada shunday salomatlik markazlari ishlab turibdi. Qolaversa, ularga nutrisiolog mutaxassislar ham birkirtilgan bo'lib, sog'lom ovqatlanish bo'yicha aholiga tavsiyalar berib borilar ekan. Ko'rganlarimizni yozishda davom etsak, o'quvchini titqitirib qo'yamiz, degan hadikda shu yerda nuqta qo'yishga jazm qildik. Chunki tumanda biz ko'nikib qolgan, faqat ayollarga xos deb o'ylaydigan tikuvchilik, maishiy xizmat ko'rsatish sohalari, dehqonchilikdan tashqari bir qator sohalarda mehnat qilayotgan xotin-qizlarga guvoh bo'ldik. Xususan, hunarlari bilan dong taratayotgan, sanoat korxonalarida televizor yasayotgan, O'zbekistonda muqobil bo'lmagan korxonalarda kabel ishlab chiqarish bilan shug'ullanayotgan xotin-qizlar faoliyati bilan ham tanishdik. Ular haqida keyingi maqolamizda to'xtalib o'tamiz.

**Gulruh MO'MINOVA.**



## Samarqandliklar Mo'g'ulistonda dehqonchilik qilishi mumkin

**Prezidentimizning 2025-yil 17-iyuldagi "Mo'g'ulistonga oliy darajadagi tashrif davomida qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohaslarida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan viloyatimiz vakillari Mo'g'ulistonga tashrif buyurishdi. Unda agrosanoat sohasida o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi korxonalarini bilan tanishish, mahsulotlarni eksport va import qilish bo'yicha bir qator amaliy uchrashuvlar tashkil etildi.**

Jumladan, viloyatimiz delegatsiyasi Mo'g'ulistonning Ulan-Bator viloyatida bo'ldi. Mo'g'uliston qishloq xo'jaligi vazirligining departament rahbari Yesun-Erdene Davaasuren bilan uchrashuvda ushbu davlatda qishloq xo'jaligi ekinlari ekish, iqlim sharoiti va bozor talablariga borasida fikr almashildi.

Mo'g'ulistonda may oyidan issiq kunlar boshlanib, yer ekin ekishga tayyor bo'ladi va 2-3 oy, janubiy viloyatlarda 3-4 oy issiq harorat saqlanib turadi. Shu bois, bironta pomidorning 80 foizi Xitoydan import qilinadi, qolgan 20 foizi issiqxonalarda yetishtiriladi.

Tashrif davomida viloyat qishloq xo'jalik boshqarmasi va Mo'g'uliston qishloq xo'jaligi va yengil sanoat vazirligining dehqonchilik siyosatini amalga oshirish departamenti o'rtasida memorandum imzolandi. Unga ko'ra samarqandliklarga Mo'g'ulistonda dehqonchilik qilish uchun 200 gektar yer ajratiladi. Faqat iqlim sharoitidan kelib chiqib, tajriba tariqasida 10 gektar maydon mamlakatning janubiy viloyati bo'lgan Darxon-Uul viloyatidan yer maydoni beriladi.

Shuningdek, "BUJT" kompaniyasi bilan chorvachilik bo'yicha muzokara o'tkazildi. Natijada, Nurobod tumanidagi 4 fermer xo'jaligi 8 ming bosh va Urgut tumanidan bita fermer xo'jaligi 2 ming bosh ("Bayat" zotli qo'y) xarid qiladigan bo'ldi. "BUJT" kompaniyasi o'tgan yili O'zbekistonga 30 ming bosh mayda shoxli mol yuborgan.

**Asliddin PO'LATOV,**  
viloyat qishloq xo'jalik boshqarmasi bo'lim boshlig'i.

**Shunday insonlar bo'ladiki, garchand bu olamni tark etgan bo'lsa-da, ezgu amallari uni bilganlar xotirasida o'chmas iz qoldiradi. Katta jamoada jo'shib mehnat qilgan, o'zidan yaxshi nom va shogirdlar qoldirgan ustoz, professor Mars Abdulhaqovich Safin mana shunday insonlardan edi.**

M.Safin 1939-yilda Andijon viloyati Baliqchi tumanidagi Chino'bd qishlog'ida tavallud topdi. Yetti yoshga to'lganida tumandagi

## XISLATI SHOGIRDLARGA IBRAT

O'rmonbek qishlog'ida joylashgan 5-o'rtta maktabning birinchi sinfiga o'qishga bordi. Maktabni muvaffaqiyatli tamomlab, bir muddat xo'jalikda mehnat qildi. 1959-yilda Samarqand davlat universiteti talabasi bo'lishdek baxtga muvassar bo'ldi.

Yosh talaba universitetda ko'plab nomdor ustozlar o'giti, ta'lim-tarbiyasini olib, ularga mehr qo'ydi, o'qib-o'rgandi va nomdor stipendiya sohibiga aylandi. 1964-yilda oliy maskanni imtiyozli diplom bilan tamomlagach, uning

hayot yo'li oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik faoliyat bilan bog'landi.

O'qituvchilik faoliyatini ilmiy izlanishlar bilan qo'shib olib bordi. 1965-yilda ustoz, biologiya fanlari doktori, professor M.Rish rahbarligida "Turli mintaqalarda boqiladigan qorako'l qo'yalar organizmidagi mis almashinuvining biokimyoviy mexanizmlarini o'rganish" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1970-yilda dotsent unvoniga sazovor bo'ldi. Ustoz 2004-2007-yillardan

boshlab AQSh, Ukraina ilmiy muassasalari bilan hamkorlikda xalqaro tadqiqotlarda faol ishtirok etdi. Universitet qoshidagi Biokimyoy instituti jamoasining faol a'zosi sifatida umrining so'nggi damlariga qadar ko'plab shogirdlarga ustozlik qildi.

Domla faoliyati davomida 270 dan ziyod darslik, o'quv-uslubiy qo'llanma, ilmiy va ommabop maqolalarga mualliflik qildi. Olim tomonidan 30 dan ortiq ommabop maqolalar viloyat va respublika ommaviy-axborot vositalarida



chop etildi. Ayniqsa, ustozning o'quv, uslubiy qo'llanmalari, shuningdek, "Molekulyar biologiya" va "Oqsillar va fermentlar

### Xotira

biotexnologiyasi" kabi darsliklari talabalar, magistr hamda yosh o'qituvchilar uchun hozir ham xizmat qilmoqda. Ustozning yana bir unutilmas xizmati shunda ediki, u 50 ga yaqin bitiruv-malakaviy ishlar va 23 nafar magistrlik dissertatsiyalariga rahbarlik qildi.

Mehribon ustoz Mars Safin oramizda bo'lmasa-da uning ta'lim-tarbiyasi, kamtarligi biz uchun o'rnak va saboq sifatida xotiramizda saqlanyapti.

**Zubaydulla IZZATULLAYEV, Xidirali BOTIROV, Samarqand davlat universiteti professorlari.**

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada ikki marta - chorshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

### QUTLAYMIZ!

**Hurmatli Azamat ESHONQULOV!**  
**Sizni tug'ilgan kuningiz bilan tabriklaymiz!**

A.Eshonqulov 1953-yilda Payariq tumanida tug'ildi. Yoshligidan huquq sohasiga bo'lgan qiziqish uni Toshkent davlat universitetiga yetakladi. Universitet huquqshunoslik fakultetini a'lo baholarda bitirib, ish faoliyatini Payariq tumani yuridik maslahatxonasida advokat sifatida boshladi. Keyinchalik Oqdaryo tumani yuridik maslahatxonasi mudiri, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili huzuridagi Fuqarolarni konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etilishi komissiyasi a'zosi, Samarqand viloyati advokatlar hay'ati rayosati raisi o'rinbosari, 2009-yildan hozirgi vaqtgacha "Samarqand qonunchilari" advokatlar hay'atida advokat, hay'at boshqaruvchisi lavozimlarida ishlab kelmoqda. Advokat sifatida yurtodoshlarimiz huquq va manfaatlarini himoya qilishda faollik ko'rsatib, xalq mehri va ishonchini qozonmoqda.

Aziz hamkasbimizga uzoq umr, sihat-salomatlik, jamiyat taraqqiyoti yo'lida amalga oshirayotgan ishlarida ulkan zafarlar tilaymiz.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADVOKATLAR PALATASI SAMARQAND VILOYATI HUDUDIY BOSHQARMASI VA "SAMARQAND QONUNCHILARI" ADVOKATLAR HAY'ATI JAMOALARI.**



### JISMONIY TARBIIYA VA SPORT BO'YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI SAMARQAND FILIALI

**quyidagi lavozimlarga tanlov e'lon qiladi:**

**Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiy kafedrasiga:**

- 1 shtat birligida dotsent;
- 1 shtat birligida katta o'qituvchi.

**Sport psixologiyasi, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasiga:**

- 0,5 shtat birligida dotsent.

**Tanlovda ishtirok etishni istaganlar quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:**

- Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali direktori nomiga ariza;
- yashash joyi ko'rsatilgan pasport nusxasi;
- kadrlarni qayd qilish shaxsiy varaqaasi;

- oliy ma'lumoti haqidagi diplom nusxasi.
- qatnashuvchilarda ilmiy daraja, ilmiy unvon, shuningdek, ilmiy ishlar va ixtirolar mavjud bo'lgan taqdirda, ularga tegishli diplomlar, attestatlar nusxalari;
- malaka oshirish haqidagi sertifikatlar.

Tanlovda ishtirok etish uchun arizalar e'lon chop etilgan kundan boshlab, bir oy davomida qabul qilinadi.

**Manzil: Samarqand shahri Choponota ko'chasi, 13-"A" uy. Telefonlar: +99866-236-21-28, +99850-588-97-04. e-mail: minsport\_markaz\_sf@umail.uz**

## SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

**quyidagi lavozimlarga shartnoma asosida tanlov e'lon qiladi:**



1. Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasida professori - 1 nafar, fan nomzodi, professor;
2. Nemis filologiyasi kafedrasida professori - 1 nafar, fan nomzodi, professor;
3. Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida professori - 1 nafar, DSc, professor;
4. Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasida professori - 1 nafar, fan doktori, DSc, professor;
5. Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasida dotsenti - 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;
6. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodika kafedrasida dotsenti - 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;
7. Ikkinchi chet tillar kafedrasida dotsenti - 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;
8. O'zbek tili, jurnalistika va kompyuter lingvistikasi dotsenti - 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;
9. Qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasida dotsenti - 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;
10. Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasida dotsenti - 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;
11. Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti - 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;
12. Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida dotsenti - 1 nafar, dotsent;
13. Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasida dotsenti - 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;
14. Narpay xorijiy tillar fakultetining umumiy fanlar kafedrasida dotsenti - 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent.

**Tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:**

1. Rektor nomiga ariza;
2. Ma'lumoti to'g'risidagi diplomlardan nusxa;
3. Ilmiy ishlar ro'yxati (3.4 shakl tasdiqlangan holda);
4. Pasport nusxasi;
5. Ma'lumotnoma (obyektivka).

Hujjatlar e'lon chiqqan kundan boshlab, bir oy davomida qabul qilinadi.

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 43-uy, xodimlar bo'limi. Telefon: +99891-520-87-45.**

### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasida marhum Xidirov Ziyoboyga (1997-yil 1-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy, 21-xona.**

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Bulakova Musallamga (2019-yil 23-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayev Hamid Azimurodovich notarial idorasida marhum Jumaniyazova Gulchira Razumetovna (2025-yil 25-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayev Hamid Azimurodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Soliyeva Mexrinisoga (2020-yil 31-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Nabiye Zabiga (2019-yil 21-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Saparov Erkin Tursunovichga (2025-yil 19-aprelda

**Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Xaydarov Davlat Orzukulovichga (2025-yil 17-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi

vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.**

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasida marhum Mamadiyarov Raxmatulla Tashpulatovichga (2025-yil 22-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasida marhum Fayziyeva Shoxida Shamsiyevnaga (2021-yil 19-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Firdavsiy ko'chasi, 96-uy.**

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Xaydarov Davlat Orzukulovichga (2025-yil 17-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi

ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullaev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Ordiyans Aleksandr Arsentevichga (2020-yil 12-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Qurbonova Gulcheraga (2022-yil 22-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial

idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko'chasi, 12-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Djalalova Dilorom Davronovnaga (2023-yil 23-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.**

### BEKOR QILINADI

Samarqand davlat tibbiyot universitetidan Vafayeva Dilorom Nuriddinovnaga 2023-yil 3-oktabrdan 2024-yil 13-yanvargacha malaka oshirganligi uchun berilgan ro'yxat raqami 17759, QT 001887 raqamli sertifikat yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Sotuvchi Kuldashv Jasur Sattorovich va sotib oluvchi Djurayev Javlon Razikovichlar o'rtasida

Ishtixon tumani "O'zbekiston" MFY, Ishtixon ko'chasi, 18-uyda joylashgan "Afsona" oshxonasining bir qismi A1-liter, 1-2-xonalari (omborxon va dahliz) uchun "Samarqand diller rieltor service" MCHJ vositachiligida 2024-yil 19-aprelda o'tkazilgan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar natijasida tuzilgan 72-sonli kelishuv bayonnomasi va ushbu bayonnoma asosida 2024-yil 19-aprelda tuzilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Marhum Niyazova Oyshaga tegishli Samarqand tumani "Quyi turkman" MFY, Narpay ko'chasi, 35-uy-joyning kadastr hujjatlari to'plami yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

### TOPGANGA MUKOFOTI

Samarqand viloyat ichki ishlar boshqarmasidan Artikov Zaynutdin Radjabovichga berilgan pensiya guvohnomasi Kattaqo'rg'on tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

**Telefon: +99894-349-04-60.**

**Ekologlarning sa'y-harakatlari va oziq-ovqat xavfsizligi masalalari doimiy muhokama qilinarayotganiga qaramasdan, qishloq xo'jaligida ayrim xavfli kimyoviy moddalar hanzuq qo'llanilmoqda. Shulardan biri formalin bo'lib, u formaldegidning suvli eritmasidir. Bu vosita asosan chorvachilik va parrandachilik korxonalarida binolarni dezinfeksiya qilish maqsadida ishlatiladi.**

Formalin ilmiy jamoatchilikka ancha vaqtdan beri ma'lum bo'lib, uzoq muddat ta'sir etganda inson salomatligiga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan moddalar qatoriga kiradi. Muammo shundaki, uni qo'llash jarayonida moddaning bir qismi bug'lanib, atmosferaga chiqadi. Biroq uning ta'siri faqat havo bilan cheklanib qolmaydi.

Formalin qoldiqlari parranda chiqindilari bilan birga organik o'g'it tarkibida dalalarga tushadi. Bu esa kimyoviy moddaning tuproqqa singib ketishiga olib keladi. Oqibatda u nafaqat zararli bakteriyalarni, balki tuproq unumdorligini ta'minlovchi foydali mikroorganizmlarni ham yo'q qilishi mumkin. Ayniqsa, aholi punktlariga yaqin joylashgan yirik parrandachilik xo'jaliklari mavjud hududlarda bu muammo yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, sanitariya ishlaridan so'ng kimyoviy moddalar qoldiqlari to'shama va go'ngaga o'tadi. Keyinchalik esa bu chiqindilar ko'p hollarda o'g'it sifatida dalalarda qo'llaniladi. Demak, kimyoviy birikmalar tuproq va suv orqali o'simliklarga, u yerdan esa oziq-ovqat zanjiriga kirib boradi. Vaqt o'tishi bilan bu moddalar inson iste'moliga tushishi mumkin.

Formalin parranda mahsulotlariga ham o'tishi ehtimoldan xoli emas. U tuxum po'cho'gidan o'tib, uning tarkibida to'planishi, shuningdek, go'sht to'qimalariga singishi mumkin. Bu esa mahsulotlarda toksik moddalar mavjud bo'lishiga olib keladi.

Bunday mahsulotlarni iste'mol qilish shilliq qavatlar yallig'lanishi, oshqozon og'rig'i, ko'ngil aynishi, quqush, bosh og'rig'i va allergik reaksiyalarga sabab bo'lishi mumkin. Agar formalin organizmga muntazam tushib tursa, u jigar, buyrak va nafas olish organlariga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Shuningdek, formaldegid ehtimoliy kancerogen hisoblanadi va uzoq muddat ta'sir etganda onkologik kasalliklar xavfini oshiradi.

Oziq-ovqat mahsulotlarida formaldegid hatto juda kam miqdorda — taxminan 0,1 mg/kg darajada aniqlansa ham, bunday mahsulot xavfsiz emas deb topilishi va sotuvga chiqarilmasligi lozim. Shu bois parrandachilik korxonalarida formalindan foydala-



## Formalin va ekologiya: TUPROQDAN DASTURXONGACHA BO'LGAN XAVFLI YO'L

nish qat'iy nazorat ostida bo'lishi, mahsulotlar esa sotuvdan oldin veterinariya-sanitariya tekshiruvidan o'tkazilishi shart.

Mamlakatimizda havoda formaldegidning ruxsat etilgan me'yorlari belgilangan. Unga ko'ra, bir martalik maksimal konsentratsiya 35 mkg/mk, o'rtacha sutkalik konsentratsiya esa 12 mkg/mk dan oshmasligi kerak. Biroq amalda ushbu me'yorlarga qay darajada rioya etilayotgani va muntazam monitoring olib borilayotgani ochiq savolligicha qolmoqda.

Parrandachilik korxonalarida ishlab chiqarish bir necha sikldan iborat bo'lib, har bir sikl o'rtacha 28 kun davom etadi. Bu vaqt mobaynida binolarni dezinfeksiya qilish uchun 40 litrdan 120 litrgacha formalin sarflanadi. Uzoqroq sikllarda esa bu miqdor 200 litrgacha yetishi mumkin. Katta hajmli binolarda amalga oshiriladigan bunday ishlovlar kimyoviy moddalarning atrof-muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatishiga olib keladi.

Bunday mahsulotlarni iste'mol qilish shilliq qavatlar yallig'lanishi, oshqozon og'rig'i, ko'ngil aynishi, quqush, bosh og'rig'i va allergik reaksiyalarga sabab bo'lishi mumkin. Agar formalin organizmga muntazam tushib tursa, u jigar, buyrak va nafas olish organlariga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Shuningdek, formaldegid ehtimoliy kancerogen hisoblanadi va uzoq muddat ta'sir etganda onkologik kasalliklar xavfini oshiradi.

Oziq-ovqat mahsulotlarida formaldegid hatto juda kam miqdorda — taxminan 0,1 mg/kg darajada aniqlansa ham, bunday mahsulot xavfsiz emas deb topilishi va sotuvga chiqarilmasligi lozim. Shu bois parrandachilik korxonalarida formalindan foydala-

xizmatiga, veterinariya xizmatiga va bojxona organlariga batafsil hisobot taqdim etishni so'rab murojaat qilganmiz. Jumladan, formalin O'zbekistonga qanday olib kirilishi, u qanday saqlanishi va qo'llanilishi, uning noqonuniy ravishda olib kirilish holatlari mavjud yoki yo'qligi, shuningdek, uning atrof-muhitga, atmosfera havosiga, yer osti va yer usti suvlariga, tuproqqa, foydali mikroorganizmlarga, insonga, o'simlik va hayvonot dunyosiga ta'siri o'rganilganmi, shu haqda ma'lumot berish talab qilingan. Biroq masala hali ham ochiq qolmoqda.

Shuningdek, ushbu moddadan foydalangan uchun korxonalar ekologik to'lovlarga jalb qilinayotgani yoki yo'qligini aniqlash ham muhim. To'liq va aniq hisobot mamlakatni jiddiy xavfdan himoya qilishga yordam berar edi. Hozirning o'zidayoq ushbu o'ta xavfli moddani ishlatish, omborlarda saqlash, logistika va noqonuniy olib kirilishini cheklash bo'yicha jiddiy choralar ko'rish zarur.

Bugungi kunda ko'plab davlatlarda xavfsizroq dezinfeksiya usullariga o'tish tendensiyasi kuzatilmoqda. Jumladan, Turkiyada parrandachilik sohasida ozondan foydalanish amaliyoti joriy etilgan. Ozon binolarni dezinfeksiya qilish, suvni tozalash va ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladi. U kuchli dezinfeksiya xususiyatiga ega bo'lib, reaksiyadan so'ng oddiy kislorodga parchalanadi va atrof-muhitda zararli qoldiq qoldirmaydi.

Formalin va formaldegiddan foydalanish ko'plab mamlakatlarda qat'iy cheklangan. Yev-

ropa Ittifoqi davlatlarida, AQSh, Yaponiya va Janubiy Koreyada ushbu moddadan foydalanishga nisbatan qat'iy sanitariya me'yorlari joriy etilgan. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda ham bu masalaga yetarli-cha e'tibor qaratish dolzarb hisoblanadi.

- Formalin va ozon gazini dezinfeksiya va ekologiyaga ta'siri jihatidan taqqoslaganda, har ikkalasi ham yuqori darajada dezinfeksiyalovchi xususiyatga ega, - deydi parrandachilik bo'yicha xalqaro mutaxassis Doktor Ramin. - Ammo xavfsizlik, muhitda saqlanish va inson salomatligi hamda ekotizimga ta'siri jihatidan ular o'rtasida jiddiy farqlar mavjud.

Formalin kuchli kimyoviy modda bo'lib, noto'g'ri qo'llanilgan zaharli ta'sirlar, kancerogenlik va ekologik ifloslanishga olib kelishi mumkin. U muhitda qolib ketishi sababli oziq-ovqat zanjiriga kirish xavfini ham tug'diradi. Shuning uchun uning qo'llanilishi faqat nazorat qilingan sharoitda, bo'sh xonalarda va barcha xavfsizlik qoidalarga qat'iy rioya qilingan holda amalga oshirilishi kerak.

Olimning ta'kidlashicha, ozon gazi esa yuqori oksidlovchi xususiyatga ega bo'lib, kasallik chaqiruvchilarga qarshi samarali ta'sir ko'rsatadi. U reaksiyadan so'ng kislorodga aylanadi va muhitda qoldiq qoldirmaydi. Shu jihatdan ozon ekologik jihatdan maqbulroq hisoblanadi. Biroq uning qo'llanish ham maxsus uskunalar va aniq konsentratsiya nazoratini talab qiladi, chunki yuqori dozalarida inson va parrandalar uchun xavfli bo'lishi mumkin.

Bu fikrlardan ko'rinadiki, formalindan foydalanish masalasi kompleks yondashuvni, qat'iy nazoratni va zamonaviy, ekologik xavfsiz texnologiyalarga bosqichma-bosqich o'tishni talab qiladi. Chunki bu faqat qishloq xo'jaligi samaradorligi emas, balki atrof-muhit va inson salomatligi bilan bog'liq masaladir.

O'tgan asrning 70-yillaridan beri formalindan keng foydalanish oqibatida O'zbekiston tuprog'i, havosi, suvi, umuman, atrof-muhitga salbiy ta'sir kuchayib borayotgani haqida xavotirli ortib bormoqda. Bakteriya va viruslarning ushbu moddaga moslashib borayotgani, ularning chidamli shakllari paydo bo'layotgani holatni yanada murakkablashtirmoqda. Shu sababli formalindan foydalanishni qayta ko'rib chiqish, uni cheklash yoki bosqichma-bosqich taqiqlash masalasi kun tartibiga chiqishi zarur.

Bu borada siyosiy partiyalar, qonunchilik organlari va mutasaddi idoralar tomonidan tezkor va aniq choralar ko'rilishi bugungi kun talabi hisoblanadi.

**To'raxon HOSHIMOV,**  
xalqaro ekolog-ekspert.



## She'rlarida qanday bo'lsa, hayotda ham shunday

**Usmon Azimni talabalik yillarimda, avval "Saylanma"si, keyin "Jodu" asari bilan tanidim. Shoirning o'zi Rauf Parfiga bergan ta'rifdek, mening tasavvurimdagi "shoir" degan qobiqqa lop-loyiq keldi. Rumi ijodidagi chapanlik, so'zni bejamasdan yurakka singdiradigan darajada aytish, ortiqcha tashbehlar qalblarni zabt etish har kimga ham nasib etmaydi. Shuning uchun o'quvchilarimga "O'zingni ayama, beshafqat bo'lg'in, joningga solib tur, gohida burov, shunda topiladi xoin bo'laging, unga rahm etma qatl et darrov", deb Usmon Azimchasiga aytganimda vujudida yengil jimirlashni his qilganliklarini aytishadi. Har kimga ham aslida qanday bo'lsa, shunday yashash, shunday ko'rinish berish ham nasib etmaydi. Usmon Azim esa she'rlarida qanday bo'lsa, hayotda ham shunday.**

Buni 2008-yil Samarqand davlat universitetining salkam 500 kishilik zalida ikki soat tik oyoqda she'r o'qiganida ko'rganman. O'sha vaqtlarda zalga kirgan talabalar tugul ayrim o'qituvchilarni ham aqalli bir soat "ushlab" turolmadik. Ikki soatlik she'r esa go'yo u yerda yig'ilganlarni sehrlab qo'ydi. Suv quygan-dek jimjiltikda shoirni butun bir quloq bo'lib tingladik. Shoirning ovozigida o'zgachalik va samimiyat, yurakdan yozish va yurakdan aytish malakasi maftun qilib qo'ydi zalni go'yo. Shunda anglab yetdimki, eshituvchini tinglashga, yaxshi ma'noda majbur qilsa bo'larkan. Chunki samimiyat eng nosamimiy odamga ham boshqacha ta'sir qiladi. U yuquvchan xarakterga ega. Yurak-yuragida o'zi ham anglab yetmagan qaysidir haqiqatlarini uyg'otadi. Vijdoni o'z borlig'ini namoyon etadi. Hamma gap o'sha samimiyatda ekan.

Usmon Azim she'rlarida nasr, nasrida nazm bor. "Jodu"ni har safar qayta-qayta o'qiganida bunga amin bo'laman. Shoirning topqirli, o'zgachalik meni maftun etadi. "Alpomish"ning niqobini olib, yuziga go'yayotganligini bevosita ko'raman. Ustaning ahvoliqa achinaman. Sohobqironning "usta va malika" g'iyabiga chek qo'yishga topgan go'zal yechimiga tasannolar aytaman. O'g'li uchun g'ozga aylangan kampirning holiga o'ylanaman. Vatan uchun, bir millatning bor bo'lishi uchun mana shunday ulkan onalar bo'lganligi haqida iztirob bilan o'ylayman. Oriyat uchun o'ladigan zamonlar

bo'lganligi va u o'tib ketganligi ko'ngilni g'ashlaydi. Inson doim dunyoni aslidan ko'ra go'zalroq ko'rishga intilishi haqiqat ekanligiga iymon keltiraman.

Triptix (uch hikoya) hikoyasi insonni uyg'otadi. Axborotga to'la, atrofigidagi odamlarga ham e'tiborsiz, "kunduzi boshimizda pulning hisob-kitobi bilan, kechqurun ko'zimiz Aldarko'sa qutida yashayotganimiz bir zamonda bu "uchtasi birda" bo'lgan hikoya inson sifatida yo'q bo'lib ketmasligimiz kerakligi haqida, mo'jizalar aslida o'zimiz, qalbimizda ekanligi haqida yuraklarga she'rdoy oqib kiradi. Usmon Azim haqiqatan o'z yurtining nodir farzandi. Shuning uchun ham nasriy asarlari dostonday o'qiladi. Qadim Qo'ng'irotning buyuk baxshisiday ko'raman shoirni.

Usmon Azim ijodidagi tasavvufga hamohanglik, tasavvufning qiyin tushunchalarini ham o'quvchiga oson anglatish xususiyati alohida bir mavzu sanaladi. Men bunday she'rlarini o'zimcha nomlaganman: "Lison ut-tayr" (Meni tashlab ketmang, do'stlarim qushlar), Vahdat ul-vujud ("Natyurmot") kabi...

Shoir ijodidagi qush, qanot nomlari bilan bog'liq she'rlarni o'qisangiz, inson (ayrimlari) haqiqatda qachonlardir qush bo'lgan haqida o'ylaysiz. Qanotingiz borday his qilasis o'zingizni. Ijodkor kishining ro'zg'or uchun ma'lum idorada ishlash majburiyati haqida yozilganday tuyuladi:

*Qachondir bir paytlar qushlik kezimda,  
Tuzoqqa tushganim ayon esimda.*



*Tiriklik ko'yida holim edi tang,  
Arang qo'nar edim,  
Uchardim arang.  
Ochlik yopishgandi ilonday jonga,  
Shunda ko'zim tushdi bir hovuch donga.*

*Sezmas ham bu donda makr borligin,  
Qo'ymadi aqldan ozgan borlig'im.  
Hayot halqumiga kelgan bu chog'da,  
Tuzoqqa tushdim. Voh, dahshat tuzoqqa.  
Qafasga tiqdilar so'ng'ra, qafasda  
Erkinlik yo'q edi hatto nafasga.  
Undan kechmadim garchi tor edi,  
Ammo donu suvi mudom bor edi.  
Keyin esimda yo'q keyinning ro'yi,  
O'lib ketgan dirman balki shu ko'yi...  
Insonlikdan esa etmayman ravish  
Qush bo'lgan zotlarga tanishdir,  
Tanish.*

Shoir ijodiga bag'ishlangan ko'rsatuvda bir kishi Alpomish bizning zamonamizda yashagan-da, biror sabab bilan unga qon kerak bo'lganda, Faqat Usmon Azim donor bo'la olardi, degan gapni aytganida yuz bora haq edi, deb o'ylayman. Chunki Alpomishni bizga qaytargan shoir "Alpomish"lardan ehtiyot bo'lishimiz zarurligini uqtirgan. Usmon Azimga mustahkam sog'lik, elimiz, yurtimizning faxrli shoiri bo'lib yurishini, "So'ngso'zlar"ni yana yuz yillar yozishini tilayman. Joningiz omon bo'lsin, she'riyatingiz bilan kitobxonlar xonadoniga yaxshilik ulashavering shoirim, deymen.

**Mashhura HASANOVA,**  
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti katta o'qituvchisi.

**Dunyo mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy hamkorlik insonlar o'rtasidagi madaniyatlararo muloqotni shakllantirishni taqozo etmoqda. Shu bois madaniyatlararo aloqaning o'ziga xos xususiyatlari va omillarini o'rganish ilmiy tadqiqotlarning istiqbolli va dolzarb yo'nalishi hisoblanadi. Bu esa turli madaniyat vakillari o'rtasida samarali muloqotni ta'minlashni taqozo etmoqda.**

## Madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish masalalari olimlar muhokamasida

Joriy yil 17-aprel kuni Samarqand davlat chet tillar institutining ingliz tili nazariyasi kafedrasida ana shunday murakkab, ko'p qirrali, til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi muammosiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy anjumanga mezbonlik qilishi kutilmoqda.

"Madaniyatlararo muloqotni rivojlantiruvchi omillar: yechimlar, an'analar va innovatsiyalar" mavzusida o'tkaziladigan anjumanda Italiya, Turkiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Eron, Tojikiston kabi mamlakatlarning nufuzli oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, mutaxassislar ishtirok etishi rejalashtirilgan.

Bugungi globalashuv jarayonlarida dunyodagi madaniyatlararo hech biri o'zicha rivojlanmayapti. Madaniyatlararo o'zaro ta'siri madaniy farqlar va xilma-xilligi ularni saqlab qolishning muhim vositasiga aylanmoqda. Bu tarixiy rivojlanish davomida turli millat vakillarining madaniy yutuqlari ham uzluksiz almashinuv jarayonini boshdan kechiryapti.

Aslida bir madaniyat mazmuni va vazifalari jihatidan boshqasining ta'siri ostida o'zgaradi. Shu bois madaniyatlararo muloqot turli nuqtai nazardan tushuniladi. Madaniyatlararo muloqot ishtirokchilarining madaniy farqlari mavjud ekan, shaxslararo muloqotda so'z va iboraning ma'nosini aniqlashga



imkon beruvchi, tugal fikr hosil bo'lgandagina tushunish odatiy holga aylanadi. Shuning uchun ham madaniyatlararo muloqot so'zlarning farqi, bir yoki bir nechta qiyinchiliklarga olib keladigan turli madaniyatlararo tashuvchilari o'rtasidagi muloqot sifatida tavsiflanadi.

Anjumanning shu ba yig'ilishlarida madaniyatlararo muloqotni rivojlantiruvchi omillar, xorijiy tillarni o'qitishda axborot texnologiyalari, masofaviy ta'lim, elektron raqamli ta'lim, chet tillarni o'qitishda zamonaviy lingvistik yo'nalishlari, lingvistik tamoyillardan foydalanish, xorijiy til o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari hamda xorijiy tillarni o'qitishda baholash kabi masalalar xorijlik mutaxassislar hamda institutimiz olimlari tomonidan muhokama qilindi.

**Nilufar SULAYMONOVA,**  
SamDChTI ingliz tili nazariyasi kafedrasini mudiri, professor.  
**Hiloliddin ABSALOMOV,**  
kafedra dotsenti.



**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 862 nusxada chop etildi. Buyurtma 144. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

**QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56**

**BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61**

**MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.**

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxonalar manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

**Navbatchi muharrir:**

**G. HASANOV.**

**Navbatchi:**

**G. MO'MINOVA.**

**Sahifalovchi:**

**B. ABDULLAYEV.**



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda